

ADO IJODIDA RUBOIY-MUSTAZODLAR

Asqarov Dilmurod,*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sul-tonxon to‘ra Ado ijodida uchraydigan ruboiy-mustazodlarning badiiy va janriy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shoirning mumtoz adabiyotdagi o‘rni, uning ruboiy va mustazod shakllarini uyg‘unlashtirish orqali yangi badiiy uslub yaratgani ilmiy jihatdan yoritiladi. Ado tomonidan Alisher Navoiy, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy va Pahlavon Mahmud kabi Sharq mutafakkirlarining ruboiylariga mustazod bog‘lash jarayoni, bu jarayonda asar mazmunini boyitish va falsafiy g‘oyalarni yanada chuqurlashtirishga erishilgani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, qo‘lyozma manbalarda saqlanayotgan ruboiy-mustazodlar haqida ma‘lumot berilib, Ado ijodining o‘ziga xosligi va adabiyot tarixidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ruboiy, mustazod, ruboiy-mustazod, mumtoz adabiyot, Sharq she‘riyati, qo‘lyozmalar, badiiy tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируются художественные и жанровые особенности рубаи-мустанзодов в творчестве Султонхон тора Адо. Освещается место поэта в истории классической литературы, а также его новаторский подход к объединению жанров рубаи и мустанзод. Рассматривается процесс создания мустанзодов на основе рубаи таких восточных мыслителей, как Алишер Навои, Омар Хайям, Абдурахмон Джамии и Пахлавон Махмуд, а также показано, как при этом углубляется философское содержание произведений. Кроме того, приводятся сведения о рукописных источниках, в которых сохранились рубаи-мустанзоды, и раскрывается значение творчества Адо в истории литературы.

Ключевые слова: Адо, рубаи, мустанзод, рубаи-мустанзод, классическая литература, восточная поэзия, рукописи, литературный анализ.

Annotation. This article examines the artistic and genre features of rubai-mustazod in the works of Sul-tonkhon tora Ado. It highlights the poet’s role in classical literature and his innovative approach in combining the poetic forms of rubai and mustazod. The study analyzes how Ado created mustazod versions of rubai written by prominent Eastern thinkers such as Alisher Navoi, Omar Khayyam, Abdurahman Jami, and Pahlavon Mahmud, and demonstrates how this process enriched the philosophical meaning of the original texts. The article also provides information about manuscript sources preserving these works and discusses the distinctive place of Ado’s творчество in literary history.

Keywords: Ado, rubai, mustazod, rubai-mustazod, classical literature, Eastern poetry, manuscripts, literary analysis.

Kirish. Xoja Ubaydulloh Ahror avlodlaridan bo‘lgan Sul-tonxon to‘ra Ado haqidagi batafsil ma‘lumotlar mustaqillik va oldingi davrdagi adabiy tadqiqotlarda yetarli darajada uchramaydi. Biz hozirgacha ko‘rishga ulguranimiz Abu Tohirxojaning “Samariya”, P.Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiyy”, B.Valixo‘jayevning “Buyuk ma‘naviy murshid”, P.I.Demezov va I.V.Vitkevichlarning “Записки о Бухарском ханстве” kabi kitoblari, ba‘zi bir qo‘lyozmalar va bir necha tadqiqotchilarning maqolalarida ma‘lumotlar o‘qidik. Albatta, Ado haqidagi ma‘lumotlar bular bilan cheklanmaydi. O‘sha davr bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy asarlar, xususan, bayozlarda unga o‘rin ajratilgan. Masalan, adabiyotshunos E.Shodiyevning qayd etishicha, “Bayozi Faxri Ro‘moniy”da shoir she‘rlari bor.

Adabiyotlar tahlili. Shoir ijodida gʻazal janrining oʻrni alohida. Gʻazallarining badiiy qimmatini va maʼnaviy ahamiyati ularni tadqiq etish, sharhlashga arzigulikdir. P.Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiy” kitobida keltirilgan quyidagi asar haqida ham shularni aytish mumkin.

*Qomatingdek yo 'qturur ashjor gulistondin biri,
Mandek ermas bulbul-u qumri-yu nolondin biri.*

Gulistondagi daraxtlardan birortasining qomati sening qomatingdek emas, gulga oshiq bulbul-u qumrining va boshqa nolakorlarning oh-u zori mening nolamdek, tavbamdek, tazarruyimdek emas, deya boshlangan ushbu gʻazal matlasida va boshqa baytlarda ham shoir tanosub sanʼatidan ustalik bilan foydalangan. Shuningdek, bayt oʻquvchini “guliston”, “ashjor”, “bulbul-u qumri”lar ila gʻazal boʻstoniga boshlaydi. Beixtiyor gulzordan zavq-u shavq, maʼnaviy ozuqa olish istagi ham tengi yoʻq sarv qomatli yor yana qanday sifatlar egaligiga qiziqish keyingi misralarni hijjalashga chorlaydi.

Sultonxoʻja Ado ijodining oʻziga xosligini belgilovchi jihatlardan yana biri uning ruboiy-mustazodlaridir. Mumtoz adabiyotimiz tarixida ruboiy va mustazodlarning oʻrni beqiyos. Arab tilidan tarjima qilinganda “toʻrtlik” maʼnosini beruvchi ruboiy atamasi sheʼriyatning toʻrt misradan iborat va hazaj bahriga munosib vaznlarda yoziladigan shakli nomini bildiradi. Bu sheʼriy shaklda xilma-xil mavzulardagi lirik kechinmalar gʻoyat ixcham tarzda, shuning bilan birga, jozibali, taʼsirchanlik bilan yoziladi. Ularda falsafiy xulosalar yetakchilik qiladi.

Mustazod esa, “orttirilgan” maʼnosini ifodalab, sheʼrlarda har qaysi misradan soʻng yana ayrim misra, aniqrogʻi, misraning birinchi va toʻrtinchi ruknlariga teng boʻlgan yarim misrasi orttirilgan lirik sheʼr shaklining nomini biladiradi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda Sultonxon toʻra Ado ijodidagi ruboiy-mustazodlar filologik, tarixiy-kontekstual va komparativ usullar asosida tahlil qilindi. Qoʻlyozma va nashr qilingan matnlar oʻrganilib, ularning badiiy, janriy va falsafiy xususiyatlari aniqlandi. Shuningdek, Ado ijodi bilan Alisher Navoiy, Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy va Pahlavon Mahmud ruboiylari solishtirildi, ruboiy-mustazodlarning sheʼriy shakl, qofiyalanish va estetik qadriyatlarini tadqiq etildi. Tadqiqot natijalari asosida Ado ijodining adabiyot tarixidagi oʻrni va novatorligi ilmiy jihatdan yoritildi.

Tahlil natijalari va muhokama. Mustazod shaklini adabiyotimizga ilk bor olib kirgan Hofiz Xorazmiydir. Navoiy bu janrda fors-tojik sheʼriyatiga xos anʼanalar izidan bordi. Maʼlumki, ushbu shakldagi lirik sheʼrlar ham Navoiy davriga qadar hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod va hazaji musammani axrabi makfufi maqsuri mustazod vaznlaridagina yaratilib kelgan. Shu tufayli shoir oʻz mustazodlarini ana shu ikki oʻlchov asosida bitdi.

*Ne vo 'smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
Ne gʻazmazayi jodu,*

Mashshota sanga zoli falakdur magar, ey oy,

Xurshid anga ko'zgu

matlasi bilan boshlanadigan mustazodda yuqorida zikr etilgan har ikki vazndan foydalanilgan. Bu she'riy shakl ichida qofiyalanish ikkita bo'ladi (sumansoy – magar, ey oy; jodu – ko'zgu). Ba'zida undan ham ko'p bo'lishi mumkin. Ogahiy mustazodlari bunga misol bo'ladi.

Adabiyot tarixida g'azallarni mustazod shakliga solish ko'p uchraydi. Xususan, Mashrabda ham shunday. Kichik lirik janr hisoblangan ruboiylarni mustazod qilish ham ba'zan kuzatiladi. Bu shoirning o'z ruboiylari bilan bog'liq gap. Lekin boshqa bir ijodkorning to'rtligini ruboiy-mustazod qilish, bizningcha, yangi hodisadir. Shu jihatdan olib qaraganda, Ado mumtoz adabiyot tarixida novator shoirdir. Uning bu shakldagi asarlari talaygina. Hozirgi kunda Fanlar akademiyasi sharqshunoslik instituti huzuridagi Sharq qo'lyozmalari markazida № 8280, № 4375, № 9014 raqamlar bilan qayd etilgan ruboiy-mustazodlari saqlanadi.

Ruboiy-mustazodlar Adoning qarindoshlaridan bo'lgan Naqibxon Tug'ral Ahroriy ijodida ham uchraydi. Quyidagi ruboiy-mustazod ushbu shoirga tegishli.

Oyina ba bazmi dilkushoyi tu rasad,

ey jon, nigoh,

Ham shona ba zulfi mushksoyi tu rasad,

moro chi gunoh?

Mo xok shavemu surma manzur aftad,

murdem zi rashk,

Dil xun shavadu xino ba poy i tu rasad,

subhanalloh!

Adabiyotshunos O.Jo'raboyev ozarbayjonlik olimi Jannat Nagiyeva va uning "Ozarboyjonda Navoiy" nomli tadqiqoti to'g'risidagi maqolasida quyidagilarni yozadi: "Kitobning ba'zi o'rinlarida muallif XIX asr o'zbek shoirlaridan Amiriy va Ado haqida ham to'xtaladi. U Amir Umarxon davridagi adabiyotga bo'lgan yuksak e'tibor, jumladan, Fuzuliy asarlarining nusxalaridan bir nechasi o'sha vaqtda ko'chirilgani va ular hozirda Ozarboyjon FA Qo'lyozmalar institutida saqlanishi haqida ma'lumot beradi. Yana shu fonddagi Sultonxon Ado Ahroriy tomonidan tartib berilgan bir manba haqida ham xabar beradi. Shunisi e'tiborliki, asosan, ruboiylar jamlangan bu nodir qo'lyozmada Navoiy va Fuzuliy ruboiylaridan bir nechasi Ado tarafidan ruboiy-mustazod qilingan ekan. Masalan, Navoiyning:

Soqiy, meni xor-xordin ayla xalos,

Kel, gul yuzung och, bahordin ayla xalos.

Yo may ber-u intizordin ayla xalos,

Yo o'ldurubon, xumordin ayla xalos

ruboiysini Ado shunday ruboiy-mustazodga aylantirgan:

*Soqiy, meni xor-xordin ayla xalos,
ey soda yuzum.
Kel, gul yuzung och, bahordin ayla xalos,
jon afro 'zum.
Yo may ber-u intizordin ayla xalos,
og 'ridi ko 'zum.
Yo o 'ldurubon, xumordin ayla xalos,
eshit bu so 'zum.*

Ado ruboiy-mustazodlarni tuzishdan maqsadi nima ekanligini o'zi shunday bayon qiladi: "Adoyi Ahrori az ro'yi bekori xost, ki ba bahonae chang (dast) dar domani buzurdon zanad, nochor ba ruboiyi azizon mustazode ixtiyor kard. Mo xud ba gardi domane namerasam, shoyad, ki gardi domani mardi ba mo rasad, go'yon suxani xudro dar zayli onho rasonid". (Ya'ni: "Men, Ado Ahroriy bekorchilik yuzasidan ulug'larning etaklaridagi changga qo'l urdim va azizlarning ruboiylaridan mustazodlar yaratishni ixtiyor qildim. Biz biror kimsaning etagi changiga yetmaymiz, zora biror kimsa etagining gard-u changi bizga tegsa, degan maqsadda so'zimni ularning etaklariga yetkazdim").

Shoir ushbu aytgan fikrlariga hamohang tarzda mana ruboiy-mustazodni keltiradi:

*Har cho, ki ruboiyi azizon bishnud
az darde g'ame,
Bigrift Adovu mustazodash bunmud
bo fahmi kame,
Harchand, ki jur'atash gustohi buvad
dar in bobat,
Ammo dari fayz ba ro'yash haq bikshud,
dak subhidame.*

Mazmuni: "Ado har yerda azizlar ruboiysini dard-u g'am ila eshitdi va ularni oldi-yu kam fahm ila mustazod etdi. Ushbu ishda jur'ati harchand gustohlik bo'ldi. Ammo haq subhidamda qalbiga fayz eshigini ochdi".

Qo'lmalardagi ruboiy-mustazodlarning umumiy hajmi 500 dan ziyoddir.

Ado tomonidan mustazod etilgan ruboiylar Sharqning mashhur mutafakkirlari qalamiga mansub bo'lib, ulardagi turli falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy fikrlar ifodalangan. Ado diqqatini o'ziga jalb qilgan "buyuk"lar va "aziz"lar Sharq adabiyotida o'z ruboiylari bilan shuhrat qozongan Umar Xayyom, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud kabilar bo'lib, Ado ular yaratgan ruboiylarni mehr bilan to'plagan, ulardagi katta falsafiy fikrlar va hikmatlardan estetik oziq olgan. Bu ruboiylarda ifodalangan fikrlar uning qarashlari bilan uyg'un bo'lgan va bu qarashlarni shakllantirgan ham. Ana shu uyg'unlik tufayli uning o'zi ham bu ruboiylarga nimadir qo'shish ishtiyoqida bo'lgan. Ana shu tarzda ruboiy- mustazodlar vujudga kelgan.

Ado zullisonayn shoir sifatida fors-tojik va o'zbek tillarida yozilgan ruboiylarga

baravar mustazod bog‘laydi. Chunonchi, u Pahlavon Mahmudning ruboiysiga mana bu tarzda mustazod bog‘laydi:

Dildor maro guft: “Charo g‘amgini?”
az ro ‘yi karam,
“Dar qaydi kadam dilbari shirini”,
bo dard-u alam,
Bar xestam-u oina ba dastash dodam,
az ro ‘yi karam,
Guftam, ki “Dar oina kiro mebini?”,
gufto, ki: “Xudam!”

Mazmuni:

Dedi yorim: “Yana nima g‘aming bor?”
latofat bilan,
“Xayoling band etdi qaysi go ‘zal yor?”
chekasan alam,
Shu onda qo ‘liga oyna tutdim,
karam yuzidan,
Dedim: “Oyinada kimning aksi bor?”
dedi u: “Bu – man!”

Ko‘rinib turibdiki, shoir o‘z usozlari ruboiylaridan mustazodlar yaratganda, she‘rning mazmuniga zarracha xalaqit bermagan, aksincha ularning mazmunini yanada to‘liqroq ochishga intilgan.

Adoning tojikcha ruboiy-mustazodlari asosida Umar Xayyom to‘rtliklari ko‘p uchraydi. Xayyoming

Aflok, ki chuz g‘am nafazoyand digar,
Binihand yake, to biraboyand digar;
Noomadagon agar binodand, ki mo
Az dahr chi mekasham, noyand digar
 ruboiysidan Ado quyidagi mustazodni keltirib chiqaradi:

Aflok, ki chuz g‘am nafazoyand digar,
ba qavmi bashar,
Binihand yake, to biraboyand digar;
monandayi zar,
Noomadagon agar binodand, ki mo
bo in holem,
Az dahr chi mekasham, noyand digar
az pushti padar.

Mazmuni:

Falak ishi erur faqat tashvish-g‘am

*bashar qavmiga,
Birin bersa etar, boshqasin barham
xuddi zar kabi,
Hali kelmaganlar bundan bexabar
biz qay holdamiz,
Dahr jafosin bilsa hatto tushmas ham
ota pushtidan.*

Ado tomonidan yaratilgan quyidagi mustazod ham Umar Xayyom ruboiysi asosida vujudga kelgan:

*Dar dahr kase ba guluzore narasid
xandon-xandon,
To bar dilash az zomona xore narasid
chandon-chandon,
Ba shona nigar, ki to ba sad shox nashud,
ozorayi zulm,
Dastash ba sari zulfi nigore narasid
dandon-dandon.*

Mazmuni:

*Gul yuzli yor dahrda nasib etmagan ekan,
xandon-xandon,
To diliga zamondan sanchilmay tikan
chandon-chandon,
Taroqqa nazars sol, yor sochiga yetguncha,
ozorayi zulm,
Yuz bo 'lak shox qilib bag 'ri tilingan
dandon-dandon.*

Ado mustazodlarining katta bir qismi Abdurahmon Jomiyning axloqiy- tarbiyaviy ruboiylari asosida yaratilgan, bunday ruboiylar qatoriga kitob haqidagi quyidagi ruboiyni kiritish mumkin:

*Xushtar zi kitob dar jahon yore nest
ore, ki maro,
Dar g 'amkadayi zamopna g 'amxore nest
dar ko 'vu safo,
Har lahza az u ba go 'shayi tanhoi
dar guftu shunud,
Sad rohateast, hargiz ozore nest,
be chunu charo.*

Mazmuni:

Kitobdan yaxshiroq do 'st yo 'q jahonda

*bilgilki menda,
G'amxo 'ring ham udir g'amli zamonda
u barcha yerda,
Tanho qolsang, u senga bermas ozor,
sen-la so'zlashar,
Joningga yuz rohat berar har onda,
beshubha, gumon.*

Xulosa. Yuqoridagi ruboiylar qanday chuqur falsafiy mazmunga ega bo'lgan bo'lsa, ular asosida mustazodlar yaratilganidan so'ng ham, o'z mazmunini yo'qotmadi, aksincha, ularning g'oyaviy yo'nalishi yanada chuqurlashib, yangi bo'yoqlar bilan qayta sayqal topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 67.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 193.

